


# So'x qadimda va o'rta asrlarda

O'zR FA Milliy arxeologiya instituti olimlari tomonidan "So'x qadimda va o'rta asrlarda (arxeologik materiallar misolida)" nomli ilmiy risola nashr etildi.

А. А. Анарбаев  
Б. К. Сайфуллаев  
М. М. Сайдов

## СҮХ ҚАДИМДА ВА ЎРТА АСРЛАРДА (АРХЕОЛОГИК МАТЕРИАЛЛАР МИСОЛИДА)



So'x Farg'ona vodiysining janubida So'x daryosiniing adir orti mikrovohasida joylashgan ko'rakam o'lka bo'lib qadimdan ajdodlarimizni o'ziga jalb qilib kelgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, mln yildan ziyodroq tarixga ega bo'lgan bu diyor bundan to'rt-besh ming yil avvaldan Markaziy Osiyo xalqlari bilan yaqindan aloqada bo'lgan. Ayniqsa, ilk va rivojlangan o'rta asrlarga kelib u Buyuk ipak yo'lining Farg'ona orqali o'tgan Shimoliy yo'nalishidagi asosiy hududlardan biriga aylanadi. Bu yerda dehqonchilik, yaylov chorvachiligi va tog'-kon sanoati har tomonlama rivojlanadi. Rivojlangan o'rta asrlar davrida Farg'ona vodiysisiga kirgan har bir karvon So'x orqali yurishga harakat qilgan.

Ushbu ilmiy risola yangi arxeologik materiallar asosida yozilgan bo'lib, O'zbekiston xalqlarining uzoq o'tmish tarixi haqida yozilajak akademik nashrlar, darslik va qo'llanmalarni tayyorlashda manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ilmiy risolada yangi arxeologik materialarni yozma manbalar bilan qiyosiy tahliliy tadqiqot asosida tayyorlangan bo'lib, unda Farg'ona vodiysi va Buyuk ipak yo'li tarixi haqida yangi ma'lumotlar joy olgan.